XALQ DEPUTATLARI SHIRIN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-012-9-131-K/24 Shirin shahar

2025-yilgi Shirin shahar mahalliy budjetini tasdiqlash hamda mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24, 25-moddalariga, Budjet kodeksining 99-moddasiga, 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga, Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-5-039-9-0-K/24-sonli qaroriga asosan, Xalq deputatlari Shirin shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shirin shaharining 2025-yilda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

shahar mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

shahar mahalliy budjeti mablag‘lari taqsimlovchilariga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

2. Qonunning 12-moddasiga asosan shahar budjetini barqarorligini ta’minlash maqsadida ayrim soliqlardan ajratma me’yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qonunning 6-moddasiga asosan 2025-yil uchun respublika budjetidan shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert **26039,6** mln so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. 2025-yil uchun shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi **383,6** mln so‘m miqdorida belgilansin.

5. Shahar budjetining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxiriga qadar ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda shahar mahalliy budjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Bunda, xarajatlarni qisqartirishda budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning budjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan

to‘lovlarni kamaytirish O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

6. Soliqlarning quyidagi turlari shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromad turlarini qo‘llaganda, shahar budjeti daromadlari xarajatlaridan ko‘p bo‘lsa yuqori turuvchi budjetlarga ajratmalarni ko‘zda tutishi mumkin.

Soliqlarning quyidagi turlari viloyat budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

Qonunning 12-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda undiriladigan quyidagi daromadlar viloyat budjetida to‘liq qoldirilsin (Hukumat qarorlari bilan alohida tegishli budjetlarga taqsimlangan daromadlar bundan mustasno):

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budjetlari hamda viloyat mahalliy budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

7. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari shahar Kengashi shaharning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarda hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga haqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning budjetiga o‘tkaziladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 5-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Shirin shahar bo‘yicha belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslariga mutlaq miqdorda bir kub metr uchun belgilangan soliq stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Shirin shahrida noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Shahar mahalliy budjetining aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘miqdorlari 299930,0 ming so‘m qilib tasdiqlansin.

12. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat viloyat va shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

13. Shahar hokimliklari choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar asosida viloyat hokimligiga taklif kiritsin.

14. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

15. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari I.Maxmudov hamda Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi I.Karabayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi XAZRATKULOV NIYOZ NAMAZBAYEVICH

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-012-9-131-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Shirin shahrining 2025-yilda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi

№	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz
1.	Sanoat mahsulotlari hajmining o‘sishi, mlrd so‘mda	9 368,2
	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	*106,2*
2.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning hajmining o‘sishi, mlrd so‘mda	48,1
	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	*100,4*
3.	Bozor xizmat ko‘rsatish hajmining o‘sish sur’ati, mlrd so‘mda	126,8
	Bozor xizmat ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, foizda	*115,5*
4.	Qurilish – pudrat ishlari hajmining o‘sish sur’ati, mlrd so‘mda	336,9
	Qurilish – pudrat ishlari hajmining o‘sish sur’ati, foizda	*107,4*

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-012-9-131-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Shirin shahar bo‘yicha mahalliy budjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Summasi (ming so‘mda)
	Daromadlar miqdori, jami	**44 986 544**
	shu jumladan	
	Mahalliy daromadlar	**18 946 925**
	Jami transfertlar miqdori	**26 039 619**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	10 623 000
2	Aylanmadan olinadigan soliq	1 752 000
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	259 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 009 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	1 713 925
6	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	39 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 907 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 488 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	156 000

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-012-9-131-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Shirin shahar mahalliy budjetidan 2025-yil uchun hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilariga ajratiladigan budjet mablag‘larining umumiy cheklangan miqdorlari

T/R	Ko‘rsatkichlar	Miqdori (ming so‘mda)
	Xarajatlar hammasi	**44 986 544,00**
1	**Maktabgacha va Maktab ta‘lim bo‘limi**	**7 599 468,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	7 358 720,00
	Shundan	
	-Maktabgacha ta‘lim muassasalarini saqlash xarajatlari	*2 612 703,00*
	-Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarini saqlash xarajatlari	*1 379 037,00*
	-Maktabgacha va maktab ta‘lim bo‘limi saqlash xarajatlari	*2 561 661,00*
	-Barkamol avlod bolalar markazi saqlash xarajatlari	*805 319,00*
	Umumta’lim maktablariga ajratilgan mablag‘lar (open budjet)	240 748,00
2	**Madaniyat bo‘limi**	**2 924 308,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	2 924 308,00
	Shundan	
	-Madaniyat muassasalarini saqlash xarajatlari	*517 755,00*
	-Madaniyat bo‘limini saqlash xarajatlari	*128 057,00*
	-3-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	*2 278 496,00*
3	**Yoshlar ishlari bo‘limi**	**1 199 340,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	1 199 340,00
4	**Sport maktablari**	**4 024 040,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	4 024 040,00
5	**Hokimyat**	**10 607 923,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	4 224 301,00
	Shundan	
	-Shahar hokimligini saqlash xarajatlari	*2 290 015,00*
	-Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	*19 438,00*

	-“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*138 553,00*
	-Ijtimoiy ko‘nikma markazini saqlash xarajatlari	*69 571,00*
	-Hokim yordamchilarini saqlash qarajatlari	*786 802,00*
	-Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	*273 984,00*
	-Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*57 253,00*
	-Axborot-kutubxona markazini saqlash xarajatlari	*588 685,00*
	Fuqarolarning tashabbusli jamg‘armalari	6 000 000,00
	Zaxira jamg‘armalari	383 622,00
6	**Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**13 932 705,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	13 932 705,00
	Shundan	
	-Obodonlashtirish boshqarmasini saqlash xarajatlari	*9 932 705,00*
	-Shahar hududidagi xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini, qishloqlar va ovullar ko‘chalari yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash xarajatlari	*4 000 000,00*
7	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**519 172,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	519 172,00
8	**Oila va xotin-qizlar bo‘limi**	**356 296,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	356 296,00
9	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 134 304,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	2 134 304,00
10	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**1 688 988,00**
	Shu jumladan:	
	Joriy xarajatlar	1 688 988,00

Xalq deputatlari Shirin shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-012-9-131-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun Shirin shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo			
		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ
1	Shirin shahar	0%	50%	100 %	50%	0%	0%	100 %	100%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	100%	100%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq			
		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ
1	Shirin shahar	0%	0%	100 %	100 %	0%	100 %	100 %	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Aylanmadan olinadigan soliq	Davlat boji	Jarima	Yig‘imlar

		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Shahar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ	МРИ	ДСБ								
1	Shirin shahar	100 %	100 %	0%	0%	0%	0%	100 %	100%	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%

Izoh: 1. Davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan mablag‘lar, ko‘chma savdo obyektini aukson savdolari orqali o‘tkazilishidan olingan pul mablag‘lari to‘liq tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi;

2. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari, tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini sotishdan tushgan tushumlar, tadbirkorlik subyektlariga maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari o‘rnatiladigan joylarni sotishdan tushgan mablag‘lar tuman va shaharlar hamda viloyat byudjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-012-9-131-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Mahallalar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 1,3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (1 gektar uchun)
1	Do‘stlik mahallasi	1,0	38610,0
2	Amir Temur mahallasi	1,0	38610,0
3	Mirzo Ulug‘bek mahallasi	1,0	38610,0
4	Bunyodkor mahallasi	1,0	38610,0
5	Farhod mahallasi	1,0	38610,0
6	Nurobod mahallasi	1,0	38610,0
7	Vatanparvar mahallasi	1,0	38610,0

Izoh: Shahar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida shahar markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-012-9-131-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Mahallalar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 1,3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (1 kv.m uchun)
1	Do‘stlik mahallasi	1,0	361,4
2	Amir Temur mahallasi	1,0	361,4
3	Mirzo Ulug‘bek mahallasi	1,0	361,4
4	Bunyodkor mahallasi	1,0	361,4
5	Farhod mahallasi	1,0	361,4
6	Nurobod mahallasi	1,0	361,4
7	Vatanparvar mahallasi	1,0	361,4

Izox: Shahar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida shahar markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Shirin shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-012-9-131-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Shirin shahar bo‘yicha belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslariga mutlaq miqdorda bir kub metr uchun belgilangan soliq stavkalari

№	Hudud nomi	Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari uchun				Sanoat korxonalari uchun				Alkogolsiz va alkogolьmahsulotlarini ishlab chiqarish uchun (pivo va vinodan tashqari)		Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
		Yer usti		Yer osti		Yer usti		Yer osti					
		koef-ent	2025-yil stavka	koef-ent	2025-yil stavka	koef-ent	2025-yil stavka	koef-ent	2025-yil stavka	koef-ent	2025-yil stavka	koef-ent	2025-yil stavka
1	Shirin shahar	1,5	1 050,0	1,5	1 275,0	1,5	1 050,0	1,5	1 275,0	1,5	57 000	1,5	22 500

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-012-9-131-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Shirin shahrida noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalar

T/r	Hududlar	qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi		G‘isht-cherepisa xomashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	
		koeffitsient	Mutloq qiymat	koeffitsient	Mutloq qiymat
1	Shirin shahar	1,3	6,500	1,3	6,006